

**VOYAGA YETMAGANLARGA NISBATAN SODIR ETILUVCHI  
ZO'RAVONLIKLAR VA ULARNING OLDINI OLIH CHORALARI: MILLIY VA  
XORIJIY TAJRIBA**

**Jumanazarova Marjona Botir qizi**  
**Abdisattorova Hilola Rustambekovna**

*Anatatsiya: Ushbu maqolada voyaga yetmaganlarga nisbatan javobgarlik choralari, voyaga yetmaganlarga nisbatan jinsiy zo'rvonlik sodir etganlarning reyestrini yuritish qoidalari aytib o'tilgan. Hamda voyaga yetmaganlarga nisbatan sodir etiluvchi zo'rvonliklar va ularning oldini olish choralari haqida.*

**Kalit so'zlar:** *Voyaga yetmaganlar, jinsiy zo'rvonlik, bulling, g'amxo'rlik qilmaslik, jazo va choralalar.*

O'zbekiston Respublikasi prezidenti 14-noyabr kuni uzoq kutilgan "Bolalarni barcha turdagi zo'rvonlikdan himoya qilish to'g'risida"gi qonunni imzoladi. Qonunni ishlab chiqish bilan 2023-yil oktabr oyidan boshlab prezident huzuridagi Ijtimoiy himoya milliy agentligi, Adliya vazirligi va YUNISEF shug'ullanib kelayotgandi. Qonunning asosiy maqsadi zo'rvonlikning oldini olish, undan jabr ko'rgan bolalar bilan ishlash va oilalarda farovonlikni ta'minlash tizimini yaratishdan iborat.

Ma'lumotlar shuni ko'rsatadiki, dunyo bo'ylab har yili 1 milliarddan ortiq bola jismoniy, hissiy yoki jinsiy zo'rvonlikka duchor bo'ladi. O'zbekistonda yaqinda o'tkazilgan Ko'p ko'rsatkichli klaster so'rovi (MICS) natijalari shuni ko'rsatdiki, 1-14 yoshdagi har uch boladan ikki nafari (62%) qattiq intizomiy choralarga duchor bo'lgan, 15-19 yoshli qizlarning 33 foizi er o'z xotinini kaltaklash huquqiga ega deb hisoblagan. Ushbu statistik ma'lumotlar bolalarni har tomonlama huquqiy himoya qilish zarurligini ta'kidlaydi.

Bolalarga nisbatan zo'rvonlik 18 yoshgacha bo'lgan bolalarga nisbatan zo'rvonlikning har qanday harakati yoki harakatsizligi sifatida ta'riflanadi. U bolaning sog'lig'i, hayoti, rivojlanishi yoki rivojlanishiga haqiqiy yoki potentsial zarar etkazishga olib keladigan ishonchli, vakolatli yoki mas'uliyatli lavozimdagi shaxs tomonidan jismoniy va/yoki ruhiy shafqatsizlik, jinsiy zo'rvonlik, beparvolik, e'tiborsizlik va tijorat yoki boshqa ekspluatatsiyani o'z ichiga oladi.

Voyaga yetmaganlarga nisbatan jinsiy zo'rvonlik sodir etganlarning reyestri ilgari quyidagi jinoyatlarni sodir etgan shaxslar kiritiladi:

□ 18 yoshga to'lmagan jabrlanuvchining nomusiga tekkanlik yoki unga nisbatan zo'rlik ishlatib, jinsiy ehtiyojni g'ayritabiiy usulda qondirganlik; □ 18 yoshga to'lmagan shaxs bilan jinsiy aloqada bo'lish yoki jinsiy ehtiyojni g'ayritabiiy usulda qondirish bilan bog'liq holda jinsiy aloqa qilishga majbur etganlik;

□ 16 yoshga to'lmagan shaxs bilan jinsiy aloqa qilganlik yoki jinsiy ehtiyojni g'ayritabiiy usulda qondirganlik yoki unga nisbatan uyatsiz-buzuq harakatlar qilganlik;

□ voyaga yetmagan shaxs tavsiflangan yoki tasvirlangan pornografik mahsulotni tarqatish, reklama qilish, namoyish etish maqsadida O'zbekistonga olib kirganlik, xuddi shuningdek uni tayyorlaganlik, tarqatganlik, reklama qilganlik, namoyish etganlik;

□ voyaga yetmagan shaxsni pornografik xususiyatga ega harakatlarning ijrochisi sifatida jalb etganlik, voyaga yetmagan shaxsni jalb etgan holda qo'shmachilik qilganlik, fohishaxonalarni tashkil etganlik yoki saqlaganlik;

□ terrorizmni sodir etgan shaxslar. Reyestr maxsus axborot tizimi orqali shakllantiriladi va yuritiladi.

Reyestrga kiritilgan shaxslarni ishga qabul qilish bilan bog'liq jarayonlar ushbu axborot tizimidan olingan ma'lumotlar asosida nazorat qilib borilishi ularga ushbu sohadagi jinoyatlarni balki jinoyat sodir etish ayanchli oqibatlariga olib kelishini aynglaydi.

Xotin-qizlarni tazyiq va zo'ravonlikdan himoya qilish sohasidagi davlat siyosatining asosiy yo'nalishlari quyidagilardan iborat:

xotin-qizlarni tazyiq va zo'ravonlikdan himoya qilish sohasidagi gender siyosatini, davlat dasturlarini hamda strategiyalarni ishlab chiqish va amalga oshirish;

jamiyatda xotin-qizlarga nisbatan tazyiq va zo'ravonlikka doir murosasizlik muhitini yaratish;

xotin-qizlarning huquqlari, erkinliklari hamda qonuniy manfaatlarini tazyiq va zo'ravonlikdan himoya qilinishini ta'minlash;

jamiyatda huquqiy ong va huquqiy madaniyatni yuksaltirish, qonuniylikni mustahkamlash;

xotin-qizlarga nisbatan tazyiq va zo'ravonlikning oldini olish, ularni aniqlash, ularga chek qo'yish uchun samarali tashkiliy-huquqiy mexanizmlarni yaratish;

xotin-qizlarga nisbatan tazyiq va zo'ravonlik sodir etilishiga olib keladigan sabablar hamda shart-sharoitlarni bartaraf etish choralarini ko'rish;

tazyiq va zo'ravonlikning oldini olish maqsadida davlat organlari, fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlari, nodavlat notijorat tashkilotlari va fuqarolik jamiyatining boshqa institutlari hamkorligini ta'minlash.

Agar xorijiy va mahalliy tartibda ko'rib o'tadigan bo'lsak :

O'zbekiston- jinsiy zo'ravonlik, shu jumladan, voyaga yetmaganlarga nisbatan jinsiy zo'ravonlik sodir etgan shaxslarga nisbatan muddatidan ilgari jazodan shartli ozod qilish yoki jazoni yengilrog'i bilan almashtirish tariqasidagi insonparvarlik aktlari tadbiriq etilmasligi belgilanib, bunday jinoyatlar uchun jazo choralari yanada og'irlashtirilyapti.

AQSH- Oilaviy zo'ravonlikda aybdor deb topilishi davlat tomonidan jiddiy sanksiyalarga olib kelishi mumkin, jumladan:

- 6 oydan 4 yilgacha ozodlikdan mahrum qilish
- jarimalar,
- shartli hukm / sinov muddati,
- muntazam ravishda mutaxassisga / rehabilitatsiyaga tashrif buyurish majburiyati.

Boshqa jinoyatlarga ham xuddi shu kabi jazolar beriladi.

Xotin-qizlarga nisbatan tazyiq va zo'ravonlik holatlarining oldini olish, ularni aniqlash hamda ularga chek qo'yishning umumiy chora-tadbirlari quyidagilardan iborat:

xotin-qizlarga nisbatan tazyiq va zo'ravonlikning oldini olish sohasidagi davlat dasturlarini, hududiy va boshqa dasturlarni ishlab chiqish hamda amalga oshirish;

tazyiq va zo'ravonlikning sabablari hamda shart-sharoitlari bo'lgan omillarni tahlil qilish, o'rganish va baholash;

aholi o'rtasida huquqiy targ'ibot olib borish;

xotin-qizlarga nisbatan tazyiq va zo'ravonlik hollarining statistik hisobi va hisobotini yuritish hamda ularni davlat statistika organlariga taqdim etish;

fuqarolarni, ayniqsa xotin-qizlarni o'z huquqlari, erkinliklari va majburiyatlari to'g'risidagi, shuningdek himoya qilish kafolatlari haqidagi axborot bilan ta'minlash maqsadida axborot-ma'rifiy faoliyatni amalga oshirish;

xotin-qizlarga nisbatan tazyiq va zo'ravonlik holatlarini aniqlashning samarali huquqiy mexanizmlarini joriy etish;

tazyiq va zo'ravonlik sodir etish xavfi bo'lgan guruhlariga mansub shaxslarga yoki ularni sodir etgan shaxslarga nisbatan oldini olish choralarini amalga oshirish;

tazyiq va zo'ravonlikdan jabrlanuvchilarga yordam ko'rsatishga va ularni himoya qilishga doir tadbirlarni amalga oshirish;

xotin-qizlarga nisbatan tazyiq va zo'ravonlik sodir etgan yoki sodir etishga moyil bo'lgan shaxslarga nisbatan ta'sir ko'rsatish choralarini qo'llash;

aybdorlarni qonunda belgilangan javobgarlikka tortish.

Xulosa: Zo'ravonlikdan himoya qilish uchun ta'lim muassasasi xodimlari ichki tartib-qoidalarga, o'quvchilar, ota-onalar va pedagogik jamoa a'zolari bilan munosabatda pedagogik etika qoidalariga qat'iy rioya qilishlari, barcha ta'lim oluvchilarga teng munosabatda bo'lishni ta'minlashlari, sinfdagi psixologik vaziyatni baholashlari va yaxshilashlari, o'quvchilar bilan suhbatlar o'tkazishlari hamda ota-onalarga maslahat berish uchun psixologlar va psixolog-inspektorlar bilan yaqin hamkorlikni yo'lga qo'yishi shart.

### FOYDALANGAN ADABIYOTLAR:

1. <https://lex.uz/>
2. @bukhlaw.com